

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”
Toshkent davlat yuridik
universiteti rektori v.v.b.


I. Rustambekov

2023-yil « »

SOTSILOGIYA

moduli dasturi (sillabus)

5 KREDIT (ECTS)

Bilim sohasi: 400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi: 420 000 – Huquq
Ta’lim yo‘nalishi: 60420200 – Davlat boshqaruvi

Modulga oid ma’lumotlar

Modul kodi: COL1A5

Modul nomi: Sotsiologiya

Semestr / O‘quv yili: 1 / 2023-2024

Kafedra nomi: Umumta’lim fanlar va madaniyat

Soatlar / kreditlar soni: 5 kredit (125 soat)

Modul mualliflari / Professor-o‘qituvchilar:

*Katta o‘qituvchi Toshpo‘lotov Shohijahon Eshpo‘lot o‘g‘li
(Toshpulatov6968@gmail.com),*

Qabul soatlari: tasdiqlangan reja-grafik asosida.

*Tasdiqlangan: Universitet Kengashining 1-sonli bayonnomasi,
30-avgust 2023-yil*

Toshkent – 2023 y.

I. MODUL TAVSIFI

«Sotsiologiya» moduli orqali talabalarda sotsial tafakkur shakllantiriladi. Sotsiologiya jamiyatni yaxlit tizimligi, shaxs va jamiyat munosabatlari, jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi haqida bilim va tajribalar hosil qilish, sotsiologik muammolarni tushunish, ularning kelib chiqish manbalarini aniqlash hamda bartaraf etish yo'llari va imkoniyatlarini qidirib topish ko'nikmasini shakllantirish hamda rivojlantirish, ularni amaliyotda qo'llashni o'rgatishga mo'ljallangan.

Yangi tahrirdagi Bosh qomusimizning 14-moddasida **“Davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi, deya belgilangan. Bo'lg'usi mutaxassislar esa ayni shu o'zgarmas tamoyillar asosida kamol topib, farovon kelajakning bo'lg'usi adolatparvar rahbarlari sifatida o'zlarini namoyon qilmoqliklari darkor.**

Ushbu modulda 10 ta mavzu qamrab olingan bo'lib, sotsiologiyaning fan sifatida shakllanishi, uning tuzilishi, jamiyatni tizim sifatida tahlil qilish, ijtimoiy institutlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni, deviant xulq-atvor va ijtimoiy nazorat masalalari, sotsial munosabatlar va ijtimoiy tendentsiyalar kabi masalalarni o'zida mujassam etgan.

Modul o'zbek, rus va ingliz tillarida asosiy fan sifatida olib boriladi.

II. MODUL ASOSIY TALABLARI

Modul bakalavriatning “Davlat boshqaruvi” ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, ulardan tarix, huquqshunoslik, falsafa, iqtisod nazariyasi fanlaridan bazaviy bilim hamda davlat va jamiyat hayotidagi siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar haqida tasavvurlarga ega bo'lish, shuningdek og'zaki va yozma o'zbek tilini bilish talab etiladi.

III. MODUL TARKIBI

5 ECTS. (125 soat)

| Ma'ruza | Seminar mashg'ulot | Laboratoriya | Assessment | Mustaqil ta'lim | Jami |
|---------|--------------------|--------------|------------|-----------------|------|
| 20 | 25 | 0 | 5 | 75 | 125 |

IV. MODUL MAQSADI

“Sotsiologiya” modulining asosiy maqsadi talabalarda sotsiologiya bo'yicha fundamental bilimlarni shakllantirish, jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy muammolarni tahlil qilishni va ularni yechimiga mos keladigan taklif va tavsiyalar yaratishni sotsiologik nuqtai nazardan tushuntirish hamda jamiyatdagi ijtimoiy va boshqaruv munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish va boshqarishni tartibga solishning ijtimoiy mexanizmlari to'g'risida

bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishdan iborat. Bundan tashqari yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 21-moddasida "...Inson o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart" deya ta'kidlanadi va bu orqali qonun ijodkorligi, tashkiliy-boshqaruv va ilmiy amaliyotda faoliyat usullari va metodlari bilan tanishtirish ham sotsiologiya modulining maqsadi hisoblanadi.

V. MODULDAN KUTILGAN NATIJALAR (MKN)

Modulni yakunlash natijasida talabalar:

1) turli xil ijtimoiy-madaniy jamiyatlarda bo'layotgan hodisa va voqealarni obyektiv ravishda taqqoslash va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish (G'arb va sharq sivilizatsiyalari misolida) (MKN I);

2) jamiyatda mavjud ijtimoiy muammolarni analiz va sintez qilish ko'nikmalariga ega bo'lish (Yangi O'zbekiston misolida)(MKN II);

3) jamiyatda ma'lum bir voqea-hodisalarga shaxs munosabati yuzasidan tadqiqotlarni tashkil etish (Yangi O'zbekistonda bo'layotga o'zgarishlar dinamikasi) (MKN III);

4) jamiyatda ijtimoiy institutlar o'rni va ahamiyati belgilash ko'nikmasiga ega bo'lish (ijtimoiy, huquqiy, diniy, iqtisodiy) (MKN IV);

5) jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarga empirik sotsiologik metodlarni qo'llash orqali xulosa chiqarish ko'nikmasini hosil qilish (kuzatish, ekasperiment, hujjatlsrni tahlil qilish metodi va mustaqil so'rov o'tkazishni tashkil etish) (MKN V).

VI. ASSESSMENT VA BAHOLASH

Talabalar yuqorida qayd etilgan natijaga erishganliklari quyidagilar orqali baholanadi:

1) MKN I, MKN II, MKN III oraliq nazorati orqali baholanadi. Buning uchun talabalarga jamoaviy loyiha ishi (*project-based work in teams*) beriladi. Talabalar Sharq va G'arb sivilizatsiyalari bo'yicha loyiha-tahlillarini guruhlarda tayyorlaydilar va har bir guruh a'zosi o'z qismini og'zaki taqdimot orqali asoslab beradi.

Oraliq nazorati uchun jami 40 ball beriladi. Bu modul bo'yicha umumiy to'plash mumkin ballning 40 %ni tashkil etadi. Oraliq nazorati uchun baholash mezonlari semestr 1-oyining 10-sanasiga qadar talabalarga professor-o'qituvchilar tomonidan yetkaziladi. Oraliq nazorati baholash mezonlari sillabusning tarkibiy qismi deb qaraladi.

2). MKN IV va MKN V yakuniy nazorat orqali baholanadi. Buning uchun talabalarga keys va u bilan bog'liq nazariy va amaliy savollar beriladi. Talabalar

savollarga javobni 2 soatlik vaqt oralig'ida auditoriya sharoitida hamda kuzatuv ostida kompyuterda universitetning elektron ta'lim platformasida yozadilar.

Yakuniy nazorati uchun jami 60 ball qo'yiladi. Bu modul bo'yicha umumiy to'plash mumkin ballning 60 %ni tashkil etadi. Yakuniy nazorati uchun baholash mezonlari semestr 1-oyining 20-sanasiga qadar talabalarga professor-o'qituvchilar tomonidan yetkaziladi. Yakuniy nazorati baholash mezonlari sillabusning tarkibiy qismi deb qaraladi.

Oraliq va yakuniy nazorati baholash mezonlari moduldan kutilgan natijalarga qay darajada erishilganlikni o'lchab berishga va shunga munosib tegishli ballni qo'yish uchun asos bo'ladi.

Modulni amaliy mashg'ulotini olib boradigan professor-o'qituvchi baholash mezonlariga tayangan holda talabalarni oraliq va yakuniy nazoratiga tayyorgarlik ko'rib borishlariga yo'naltirib boradi.

Professor-o'qituvchi nazorat ishini tekshirish so'ngida konstruktiv taqriz (feedback) beradi.

Professor-o'qituvchi har bir darsda moduldan va individual darsdan kutilayotgan natijalarni baholashga qaratilgan **formativ assessment** (formative assessment) o'tkazib boradi. Formativ assessmentning maqsadi talabani ball ko'rinishida baholash emas, balki uning moduldan va individual darsdan kutilayotgan natijalarga erish uchun qo'llab-quvvatlashdir. Bunda talabaning ishi, yozma yoki og'zaki javobiga individual yoki umumiy baho qo'yilmaydi. Unga tegishli shaklda konstruktiv taqriz berib boriladi.

Talabalar oraliq va yakuniy nazorat yozma ishlarini tayyorlashda **Akademik halollik va tadqiqot etikasi kodeksi** talablariga qat'iy rioya etishi talab qilinadi. Talaba tomonidan akademik halollik talablari buzilganda, jumladan mualliflik o'zlashtirilgan (**plagiat**) holatda, bunday yozma ishlarga nol ball qo'yiladi yoki oldin qo'yilgan nazorat reyting balli bekor qilinadi hamda bu talabaga nisbatan tegishli chora ko'rilishi uchun asos bo'ladi.

VII O'QUV MASHG'ULOTLARINI OLIB BORISH

Modul mashg'ulotlari ma'ruza va seminar shaklida tashkil etiladi. mashg'ulotlarda qo'llanadigan metodlar modul va darsning maqsadi hamda kutilayotgan natijalaridan kelib chiqadi. Mashg'ulotlarni olib borishda professor-o'qituvchilar **fasilitator** rovida bo'lib, talabalar tomonidan darsga tayyorgarlik ko'rib kelishda orttirgan bilimlarini yanada yuksaltirish va ularning soha bilan bog'liq sotsial-yuridik ko'nikmalari va qadriyatlarini shakllantirishga ko'maklashadilar.

Barcha darslar talaba diqqat markazda bo'lgan ta'lim (**student-centred teaching**) tamoyili asosida interaktiv metodlarni qo'llagan holda olib boriladi.

Talabalar seminar mashg'ulot darslariga tayyorgarlik ko'rib kelishlari kerak.

Ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini olib borishda professor-o'qituvchilar tomonidan interaktiv savol-javob-kollokvium ya'ni Suqrot metodidan foydalaniladi. Bu talabalarning tahliliy va tanqidiy fikrlashini rivojlanishiga,

qiyosiy tahlil etish orqali muammo va masalalarga yechim topishga undaydi. Bunda muammoli savollarning, keyslarning aniq yechimi bo'lmashligi mumkin. Ya'ni javoblarga yechim va takliflarning multikomponentli bo'lishi, muammoga turli tomondan yondashuvlarga olib jeladi,

Professor-o'qituvchilar ma'ruza va seminar mashg'ulotining maqsadi va kutiladigan natijasidan kelib chiqib boshqa turli metodlarni qo'llagan holda darslarni olib borishlari mumkin.

Ma'ruza va seminar asosan talabalarning tanqidiy-tahliliy fikr yuritish hamda sohaga doir amaliy va nazariy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Bular keys-stadi, interaktiv taqdimotlar, kichik guruhlardagi muhokama, loyiha ishi, eng zamonaviy adabiyotlar tahlili va boshqa shu kabi metodlarni qamrab oladi.

Modul mavzularining tarkibiy qismlari va mavzu doirasida tavsiya etiladigan adabiyotlar haqidagi batafsil ma'lumotlar ushbu sillabusning ilovasida keltirilgan. Mavzuning tarkibiy qismlari va tavsiya etilgan adabiyotlar professor-o'qituvchilarga kafolatlangan akademik erkinlikdan kelib chiqib farqlanishi mumkin.

VIII.MUSTAQIL TA'LIM

Mustaqil ta'lim talabaga amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish, xususan, tavsiya etilgan adabiyotlarni o'qish, kazuslarning yechimiga tayyorgarlik ko'rish, dars mashg'ulotlarida ulgurilmay qolingan qismni mustaqil o'zlashtirish va imtihonlarga tayyorgarlik ko'rish doirasida kechadi.

Professor-o'qituvchilar har bir guruhning umumiy o'zlashtirish darajasi, guruhning umumiy yoki talabalarning modulni o'zlashtirish bilan bog'liq ehtiyoji va talabidan kelib chiqib mustaqil ta'lim uchun individual va alohida topshiriq berishlari mumkin.

IX. MODUL MAVZULARI

| № | Mavzular sarlavhalari | Jami soat | Auditoriyada o'tiladigan soatlar | | Mustaqil ta'lim soatlari |
|----|--|-----------|----------------------------------|---------|--------------------------|
| | | | Ma'ruza | Seminar | |
| 1. | 1-mavzu Sotsiologiyaga kirish | 10 | 2 | 2 | 6 |
| 2. | 2-mavzu Jamiyat yaxlit tizim - sifatida | 11 | 2 | 2 | 7 |

| | | | | | |
|-------------|---|------------|-----------|----------------------------------|-----------|
| 3. | 3-mavzu Shaxs va madaniyat | 11 | 2 | 2 | 7 |
| 4. | 4-mavzu Sotsial munosabatlar, sotsial stratifikatsiya | 11 | 2 | 2 | 7 |
| 5. | 5-mavzu Sotsial guruhlar va sotsial institutlar | 11 | 2 | 2 | 7 |
| 6. | 6-mavzu Ijtimoiy mobillik | 14 | 2 | 4 | 8 |
| 7. | 7-mavzu Deviant xulq-atvor | 14 | 2 | 4 | 8 |
| 8. | 8-mavzu Ijtimoiy ziddiyat. | 12 | 2 | 2 | 8 |
| 9. | 9-mavzu Ijtimoiy hayotning globallashuvi | 13 | 2 | 2 | 9 |
| 10. | 10-mavzu Empirik sotsiologik tadqiqot va uning metodlari | 13 | 2 | 3 | 8 |
| Jami | | 125 | 20 | 25 (5-baholash) | 75 |

MODUL KONTENTI

1-mavzu. Sotsiologiyaga kirish

1. Sotsiologiya mustaqil ijtimoiy fan sifatida.
2. Sotsiologiya fanining predmeti va ob'ekti.
3. Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
4. Sotsiologiyaning tarkibiy tuzilishi.
5. Hozirgi davrda sotsiologiya fanini o'qitishning dolzarbligi.
6. Sotsiologiya fanining yuzaga kelishi.
7. Sharq mutafakkirlarining sotsiologik qarashlari.
8. G'arbiy Yevropa sotsiologiya maktabi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

Qirg'izboyev M. Sotsiologiya – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti. 2017. 7-37–betlar. (o‘quv qo‘llanma).

Saidxodjayev X. Sotsiologiya – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2017. 5-9 betlar (darslik)

Richard T. Sociology in modules - New York. 2013. 7-12 betlar.

Тургаева А. Социология (учебник). 2-издание. –Москва: Юрайт. 2018. 3-20 стр.

2-mavzu. Jamiyat yaxlit tizim sifatida

1. Jamiyat va ijtimoiy tizim tushunchalari.
2. Jamiyat to‘g‘risidagi qarashlarning xilma-xilligi.
3. Jamiyatning ko‘rinishlari va turlari.
4. “Uch dunyo”.
5. Uchinchi dunyo mamlakatlari.
6. Birinchi va ikkinchi dunyo mamlakatlari.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Qirg'izboyev M. Sotsiologiya – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti. 2017. 57-104–betlar. (o‘quv qo‘llanma).

Richard T. Sociology in modules. New York. 2013. 18-25 betlar.

Тургаева А. Социология (учебник). 2-издание. –Москва: Юрайт. 2018. 25-33 betlar.

3-mavzu. Shaxs va madaniyat

1. Sotsiologiyada shaxs tushunchasi va uning shakllanish asoslari.
2. Shaxsning ijtimoiy roli.

3. Ijtimoiylashuv.
4. Madaniyat hodisasi.
5. Madaniyat turlari va shakllari.
6. “Ommaviy madaniyat”

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Saidxodjayaev X. Sotsiologiya – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2017. 189-193 betlar (darslik)

Qirg‘izboyev M.Sotsiologiya – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti. 2017. 175-204– betlar. (o‘quv qo‘llanma).

Cragun Ryan, Cragun Deborah. Introduction to Sociology. Wikibooks.org. 26-35 betlar.

Тургаева А. Социология (учебник). 2-издание. –Москва: Юрайт. 2018. 36-45 betlar

4-mavzu. Sotsial munosabatlar. Sotsial stratifikatsiya.

1. Sotsial munosabatlar tushunchasi.
2. Sotsial munosabatlar turlari.
3. Sotsial tabaqalashuv.
4. Begonalashuv va tanazzul, uning ijtimoiy oqibatlar.
5. Sotsial stratifikatsiya tushunchasi va mohiyati.
6. Sotsial stratifikatsiyaning tarixiy tiplari.
7. Yoshlar sotsiologiyasi. O‘zbekistonda yoshlar hayoti va faoliyatining ijtimoiy masalalari

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Qirg‘izboyev M.Sotsiologiya – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti. 2017. 264-338– betlar. (o‘quv qo‘llanma).

Тургаева А. Социология (учебник). 2-издание. –Москва: Юрайт. 2018. 38-44 betlar.

5-mavzu. Sotsial guruhlar va sotsial institutlar

1. Sotsial guruh tushunchasi.
2. Sotsial guruhlarning asosiy belgilari va strukturasi.
3. Guruhlarning asosiy turlari.
4. Kvaziguruhlar.
5. Sotsial institutlar va ularning turlari.
6. Oila – jamiyatning muhim institutlaridan biri.
7. Sotsial tashkilotlar.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

Mustaqil ta’lim doirasidagi vazifalar:

Qirg‘izboyev M.Sotsiologiya – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti. 2017. 132-175– betlar. (o‘quv qo‘llanma).

Г.Уразалиева. Социология. (учебное пособие) –Т.: ТИИИМСХ. 2019. – С. 41-56.

Richard T. Sociology in modules. New York. 2013. 34-38 betlar.

6-mavzu. Ijtimoiy mobillik

1. Mobillik tushunchasi.
2. Ijtimoiy mobillik tasnifi
3. Vertikal mobillik kanallari.
4. Marginallik tushunchasi va uning turlari.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

Giddens E. Sotsiologiya – Toshkent.: “Sharq nashriyoti” 2002. 262-272 betlar (o‘quv qo‘llanma).

Г.Уразалиева. Социология. (учебное пособие) –Т.: ТИИИМСХ. 2019. – С. 41-56.

Shaxs ma’naviy ruhiy begonalashuvining shakllari. A.Ibrohimov
<https://cyberleninka.ru/article/n/shaxs-ma-naviy-ruhiy-begonalashuvining-shakllari>

7-mavzu. Deviant xulq-atvor

1. Deviant xulq-atvor tushunchasi.
2. Deviant xulq-atvor turlari va shakllari.
3. Delinkvent va kriminal xatti-harakatlar.
4. Deviatziyaning biologik va psixologik nazariyalari.
5. Sotsial nazorat.
6. Jamiyatda korrupsiya muammosi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

Qirg‘izboyev M.Sotsiologiya – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti. 2017. 132-175- betlar. (o‘quv qo‘llanma).

Saidxodjayaev X. Sotsiologiya – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2017. 189-193 betlar (darslik)

Giddens E. Sotsiologiya – Toshkent.: “Sharq nashriyoti” 2002. 141-181 betlar (o‘quv qo‘llanma).

Г.Уразалиева. Социология. –Т.: ТИИИМСХ. 2019. – С. 56-73. (учебное пособие).

8-mavzu. Ijtimoiy ziddiyat.

1. Konfliktologiyaning nazariy kelib chiqishi.
2. Konfliktlarning paydo bo‘lish shartlari va turlari.
3. Konfliktlarni boshqarish.
4. Shaxsiy ichki konfliktlarning ijtimoiy-psixologik asoslari.
5. Konfliktlarning o‘zaro ta’siri va konfliktning tugashi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar::

Axmedova M. Pedagogik kofliktologiya – Toshkent: “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti. 2016. 41-107 betlar.

Дмитриев А. Конфликтология. - М.,2000.С.54.

Cognitive sociology, social cognition and coping with racial discrimination in international law // European Journal of International Law 2019E.J.I.L. 2019, 30(4), 1319-1338 Moshe Hirsch (westlaw)

9-mavzu. Ijtimoiy hayotning globallashuvi

1. Globallashuv hodisasining mazmun-mohiyati.
2. Hozirgi zamon jamiyatining muhim global muammolari.
3. Neoimperializm.
4. Dunyo aholisi sonining o‘sishi. Demografik tamoyillar.
5. Inson sog‘lig‘i va hayotini saqlash.
6. Yadro qurolini ishlatish oqibatlari.
7. Zaharli moddalardan foydalanish oqibatlari.
8. Oziq-ovqat muammosi.
9. Ijtimoiy ekologiya.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

Aminova M. Globallashuv asoslari Toshkent-“Fan va texnologiya”nashriyoti 2016 yil 4-42 betlar

Тогусаков Осмон Асанкулович, Асаналиев Уланбек Аскарбекович Глобализация как социально-политическая проблема // Вестник науки и образования. 2019. №10-3 (64). <https://cyberleninka.ru/article/n/globalizatsiya-kak-sotsialno-politicheskaya-problema>

Gender in socio-legal teaching and research in germany // German Law Journal October, 2020 German L.J. 1345Ulrike Schultz (westlaw)

10-mavzu. Empirik sotsiologik tadqiqot va uning metodlari

1. Empirik sotsiologik tadqiqot.
2. Sotsiologik tadqiqotlarning asosiy bosqichlari.
3. Sotsiologik tadqiqot dasturi va uning tuzilishi.
4. Sotsiologik ma’lumotlarni yig‘ish usullari.
5. Sotsiologik tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbqiq etish usul va shakllari.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

Qirg‘izboyev M.Sotsiologiya – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti. 2017. 132-175– betlar. (o‘quv qo‘llanma).

Убайдуллаева Р., Бекмуродов М. ва бошқалар. Социология (ўқув кўлланма). –Ташкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси. 2002. 184-235.

Giddens E. Sotsiologiya – Toshkent: “Sharq nashriyoti” 2002. 758-780 betlar

Г.Уразалиева. Социология. Учебное пособие. –Т.: ТИИИМСХ. 2019. – С. 111-121.